

## SURXONDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Surxondaryo viloyatida 2023- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni **2821,9** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **15,5** ming kishiga yoki **0,6 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1022,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,2 %**), qishloq aholisi soni **1799,6** ming kishi (**63,8 %**)ni tashkil etdi.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 1 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 139,7 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Termiz shahri bo'lib, aholisi 197,4 ming kishi.

### Doimiy aholi soni



### Tabiiy o'sish



### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar joylarda



**1022,3** ming kishi

#### Qishloq joylarda




**1799,6** ming kishi

### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi


2023- yil 1- aprel holatiga

#### Erkaklar




**1427,3** ming kishi

#### Ayollar



**1394,6** ming kishi




## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

*1- aprel holatiga, ming kishi*

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2757,3</b>	<b>2821,9</b>	<b>102,3</b>
Termiz sh.	191,0	197,4	103,4
tumanlar:			
Oltinsoy	184,9	188,8	102,1
Angor	138,1	141,2	102,2
Bandixon	79,2	81,3	102,7
Boysun	120,2	122,4	101,8
Muzrabot	147,8	151,1	102,2
Denov	402,0	412,1	102,5
Jarqo'rg'on	228,1	233,5	102,4
Qumqo'rg'on	244,8	250,5	102,3
Qiziriq	119,4	121,7	101,9
Sariosiyo	218,7	223,6	102,2
Termiz	80,9	82,7	102,2
Uzun	180,3	184,3	102,2
Sherobod	202,9	207,1	102,1
Sho'rchi	219	224,2	102,4

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

*1- aprel holatiga, ming kishi*



Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2023- yil 1- aprel holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumanida 412,1 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (14,6 %) va Qumqo'rg'on tumanida 250,5 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on tumanida 233,5 ming kishi (8,3 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 81,3 ming kishini (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati yil boshiga nisbatan soni Denov tumanida 2,6 ming kishi (0,6 %) va Qumqo'rg'on tumanida 1,3 ming kishini (0,5 %), Jarqo'rg'on tumanida 1,4 ming kishi (0,6 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 0,5 ming kishini (0,7 %) tashkil etdi.


## Surxondaryo viloyati viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-mart, dastlabki ma'lumotlar



## Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- aprel holatiga, ming kishi



## Viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati

(yanvar-mart)

	kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	o'sish, kamayish, +,-	2022- yil	2023- yil
Tug'ilganlar	18 414	19 594	1 180	27,2	28,2
O'lganlar	3 204	3 325	121	4,7	4,8
Nikohlar	5 136	4 710	-426	7,6	6,8
Ajralishlar	676	713	37	1,0	1,0
Ko'chib kelganlar	2 633	2 701	68	3,9	3,9
Ko'chib ketganlar	3 764	3 518	-246	5,6	5,1

Tug'ilish. 2023- yilning yanvar-mart oylarida 19,6 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tirik tug'ilganlar inobatga olinadi), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 28,2 promilleni tashkil etdi hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,0 promillega ko'payganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-mart oylarida 27,2 promille bo'lgan).

*Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*

**Qiz bola:**

**9,4 ming kishi**



**O'g'il bola:**


**10,2 ming kishi**

2023- yilning yanvar-mart oylarida 19,6 mingta tugʻilganlar qayd etilgan boʻlib, shundan oʻgʻil bolalar 10,2 ming kishini, qiz bolalar 9,4 ming kishini tashkil etadi.

**Hududlar kesimida tugʻilganlar sonining  
oʻtgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi,  
(1- aprel holatiga, kishi)**

	2022- yil	2023- yil*	Oʻsish surʼati %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>18 414</b>	<b>19 594</b>	<b>106,4</b>
Termiz sh.	1 227	1592	129,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	1 201	1213	101,0
Angor	946	966	102,1
Bandixon	602	612	101,7
Boysun	784	729	93,0
Muzrabot	904	968	107,1
Denov	2 697	3139	116,4
Jarqoʻrgʻon	1 637	1783	108,9
Qumqoʻrgʻon	1 663	1686	101,4
Qiziriq	756	786	104,0
Sariosiyo	1 338	1421	106,2
Termiz	626	490	78,3
Uzun	1 205	1235	102,5
Sherobod	1 345	1395	103,7
Shoʻrchi	1 483	1579	106,5

## Hududlar kesimida tug‘ilishlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti (2023- yil yanvar- mart)




**Tabiiy o‘shish.** 2023- yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o‘shishi 16,3 ming kishini (2022- yilning yanvar-mart oylarida 15,2 ming kishi) tashkil etdi.



## Asosiy o'lim sabablari bo'yicha

2023- yil yanvar-mart

**Jamiga nisbatan ulushi,**  
% da



**Vafot etganlar.** 2023- yilning yanvar-mart oylarida 3,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil etdi, 2022- yilning mos davriga 4,7 promille bo'lgan.

2023- yilning yanvar-mart oylarida 3,3 ming nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, vafot etganlarning 48,5 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 3,3 % i o'simtalardan, 2,8 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,1 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 20,2 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,4 % i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 22,7 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.



**Hududlar kesimida vafot etganlar sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi**  
(1- aprel holatiga)

Hududlar	2022- yil	2023- yil*	O'sish sur'ati +:-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>3 204</b>	<b>3 325</b>	<b>121</b>
Termiz sh.	222	262	40
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	155	250	95
Angor	199	189	-10
Bandixon	84	69	-15
Boysun	123	144	21
Muzrabot	122	188	66
Denov	434	387	-47
Jarqo'rg'on	253	282	29
Qumqo'rg'on	346	251	-95
Qiziriq	125	245	120
Sariosiyo	208	200	-8
Termiz	92	98	6
Uzun	296	213	-83
Sherobod	296	277	-19
Sho'rchi	249	270	21


**Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar sonining  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi  
(yanvar-mart)**



Hududlar	2022- yil	2023- yil*	O'sish sur'ati +:-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>5 136</b>	<b>4 710</b>	<b>-426</b>
Termiz sh.	299	304	5
tumanlar:			
Oltinsoy	294	345	51
Angor	261	220	-41
Bandixon	157	85	-72
Boysun	230	159	-71
Muzrabot	296	269	-27
Denov	679	606	-73
Jarqo'rg'on	514	462	-52
Qumqo'rg'on	428	411	-17
Qiziriq	223	233	10
Sariosiyo	487	467	-20
Termiz	141	136	-5
Uzun	331	287	-44
Sherobod	337	300	-37
Sho'rchi	459	426	-33



## Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar soni va nikoh koeffitsiyenti kishi (2023- yil yanvar-mart)




**Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar sonining  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi  
(yanvar-mart)**

Hududlar	2022- yil	2023- yil*	O'sish sur'ati +:-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>676</b>	<b>713</b>	<b>37</b>
Termiz sh.	68	63	-5
tumanlar:			
Oltinsoy	18	31	13
Angor	39	42	3
Bandixon	6	12	6
Boysun	26	26	0
Muzrabot	40	73	33
Denov	83	88	5
Jarqo'rg'on	59	40	-19
Qumqo'rg'on	57	62	5
Qiziriq	28	32	4
Sariosiyo	60	50	-10
Termiz	28	32	4
Uzun	63	47	-16
Sherobod	57	53	-4
Sho'rchi	44	62	18

Ajrim koeffitsientida aksariyat tumanlarda o'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatildi. O'tgan yilga nisbatan eng ko'p o'sish Oltinsoy tumani (0,3 promillega), Bandixon tumani (0,3 promillega), Sho'rchi tumani (0,3 promillega) ro'y berdi.

Aksincha kamayish Jarqo'rg'on tumanida (-0,4 promillega) tumanida kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2023- yil yanvar-mart kishi, promille)



## Aholi migratsiyasi (kishi)

2023- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 3,5 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,8 ming kishi bo'lib, 2022- yilning mos davrida minus 1,1 ming kishi bo'lgan.

**2022- yil**  
yanvar-mart



**2023- yil**  
yanvar-mart



**Ko'chib ketganlar**



**Ko'chib kelganlar**



**Migratsiya saldosi**

## Hududlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni (2023- yil yanvar-mart uchun, kishi)

Hududlar	Ko'chib kelganlar soni	Ko'chib ketganlar soni	Migratsiya saldosı
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2 701</b>	<b>3 518</b>	<b>-817</b>
Termiz sh.	825	447	378
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	66	162	-96
Angor	188	145	43
Bandixon	18	23	-5
Boysun	105	206	-101
Muzrabot	105	210	-105
Denov	172	325	-153
Jarqo'rg'on	149	243	-94
Qumqo'rg'on	168	272	-104
Qiziriq	144	288	-144
Sariosiyo	87	274	-187
Termiz	301	255	46
Uzun	104	163	-59
Sherobod	160	268	-108
Sho'rchi	109	237	-128



### Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**  
tel: (76) 225-65-60